

PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA O'QISH DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Majidov Jahongir Fazliddin o'g'li

majidovjahongir2000@gmail.com

Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro miqyosdagi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) baholash dasturi topshiriqlari asosida o'qish darslarini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Maqolada o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirishda PIRLS talablariga mos yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim standartlariga mos ravishda dars jarayoniga interaktiv metodlar, differensial yondashuv va o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni integratsiyalash bo'yicha takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari sifatida o'qish darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning o'quvchilar natijalariga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Mazkur maqola o'qituvchilar, metodistlar va ta'lim tashkilotchilari uchun foydali ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: informatsion matn, PIRLS tadqiqoti, taqqoslash, mantiqiy tahlil, savol-javob metodi, o'z-o'zidan rivojlantirish, innovatsion usullar, anonim so'rovnomalar, TIMMS va PISA dasturlari

Abstract: This article addresses the issues of effectively organizing reading lessons based on the tasks of the international PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) assessment program. It analyzes the importance of approaches aligned with PIRLS requirements in developing students' skills in understanding, analyzing, and reflecting on texts. Additionally, the article presents proposals for integrating interactive methods, differentiated approaches, and tasks aimed at developing students' functional literacy into the lesson process in accordance with modern educational standards. As a result of the research, the positive impact of organizing reading lessons using new pedagogical technologies on students' performance is substantiated. This article serves as a valuable scientific and practical resource for teachers, methodologists, and education organizers.

Keywords: informational text, PIRLS study, comparison, logical analysis, question-and-answer method, self-development, innovative methods, anonymous questionnaire, TIMMS and PISA programs.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlatning ta'lim tizimi xalqaro mezonlar asosida baholanmoqda. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki

ularning o'ylay olish, tahlil qilish, muammoni hal etish va o'z fikrini asoslab ifoda etish qobiliyatini ham o'rganishni talab etadi. Ayniqsa, o'qish savodxonligi — zamonaviy insonning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dunyo bo'ylab 4-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) baholash dasturi muhim o'rin tutadi. PIRLS – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda taxsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimi hisoblanadi. PIRLS loyihasi Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) shafeligida yaratilgan. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kolleji mas'ul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniyaning Gamburgdagi ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Bu dastur o'quvchilarning matn bilan ishlashda ko'rsatadigan literal, tahliliy, baholovchi va shaxsiy yondashuv ko'nikmalarini chuqur tahlil etishga xizmat qiladi. PIRLS nafaqat baholash vositasi, balki dars jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning tafakkurini chuqurlashtirish va o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantirishda kuchli metodik asos hamdir. O'qish darslarini PIRLS mezonlariga mos ravishda tashkil etish orqali biz o'quvchilarni matn mazmunini yuzaki emas, balki teran anglashga, har bir so'z va g'oya ustida fikr yuritishga, mustaqil qaror qabul qilishga va o'z nuqtayi nazarini dalillar bilan asoslashga o'rgatamiz. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi: shaxsiy fikrga ega, tafakkuri teran va faol fuqaroni tarbiyalashdir.

Shunday ekan, biz avvalo PIRLS topshiriqlari asosida metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va pedagoglarni bu bo'yicha tayyorlamoq lozim hisoblanadi. PIRLS topshiriqlari asosida Milliy markaz tomonidan yaratilgan

4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun mashq daftarlari

bugungi kunda maktablarda foydalanilmoqda. Biroq ko'zlangan natijalarni ko'rsatmayapti. Bu esa yaratilgan mashq daftarlari bilan o'qish darslarida berilgan matnlarni bir-biri bilan bog'lay olmasligi natijasida yuzaga kelmoqda. Undan tashqari ba'zi bir maktablarda bu kabi testlarga tushunmaslik, ulardan foydalana olmaslik kabi holatlarning ham uchrashini ko'rishimiz mumkin. Ularni dars jarayoniga qiziqishini oshirishimiz va Xalqaro baholash dasturlaridan PIRLS tadqiqotiga tayyorlash uchun avvalo ularni o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga olib kirmog'imiz lozim hisoblanadi. Ularning qiziqishini oshirish uchun turli xil metodlardan foydalangan xolda dars mashg'ulotlarini tashkil etishimiz, ularning qiziqishini uyg'otibgina qolmay balki o'quvchilarning fikrlash doirasining ham kengayishiga olib keladi.

PIRLS topshiriqlari asosida o'qish darslarini bugungi kun talablari asosida tashkil etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qancha metodlar va yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

“Venn diagrammasi”

Ikkita yoki undan ortiq matn yoki obrazlarni taqqoslashda foydali. Umumiy va farqli jihatlarni grafik ko'rinishda ifodalaydi.

Bu o'quvchilarning etiborli bo'lishini, har qanday detallarga ham etibor berishga o'rgatadi.

“Rolli o'yinlar “(Rol o'ynash)

Matn qahramonlarining o'rniga kirib, dialog tuzish, sahna ko'rinishlari yaratish orqali chuqur tushunish hosil qilinadi.

Matnga asoslangan ijodiy yozuvlar

- Matnga boshqa yakun yozish
- Qahramon nomidan kundalik yozish
- Davomini o'ylab yozish

Bu orqali o'quvchilar matn bilan ijodiy va tanqidiy munosabatda bo'lishadi.

“Qiziqarli test va viktorinalar” (Kahoot, Quizizz)

Matn asosida interaktiv testlar orqali o'quvchilarning e'tibori va ishtirokini oshirish.

Bu esa bugungi glaballashuv jarayonida dars jarayonining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

“Matnga visual” yondashuv

- Komikslashtirish
- Rasm chizish
- Slayd tayyorlash

Bu usul orqali o'quvchilar o'qilgan matnni obrazli va tushunarli tarzda aks ettirishadi.

“Tahliliy savollar bilan ishlash”

PIRLS talablariga mos turli darajadagi savollar:

- Literal (Fakt): Matndan to'g'ridan-to'g'ri topiladigan javoblar.
- Inferensial (Xulosa): Matndan xulosa chiqarish.
- Evaluativ (Baholovchi): Qahramonning harakatini baholash.
- Ijodiy (Creative): Yangi yakun, rol o'zgartirish.

“O'z-o'zini baholash va refleksiya”

Har darsdan so'ng o'quvchilar o'zlari o'rgangan bilimlarni tahlil qiladi:

- Nima tushundim?
- Nima qiyin bo'ldi?
- Nima savol tug'ildi?

“INSERT” (belgilash) usuli

O'quvchi matnni o'qiyotganda quyidagi belgilarni qo'yadi:

“+” – avvaldan bilgan ma'lumot

“-” – yangi ma'lumot

“?” – tushunarsiz yoki savol tug'ilgan joy

“!” – hayratlantirgan yoki muhim joy

Bu esa o'quvchini xotirasini yaxshilashga, undan tashqari kreativ (ijodiy) fikrlashining ham o'sishiga yordam beradi.

4- sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini tekshirish uchun tajriba o'tkazdim. Milliy markaz tomonidan yaratilgan 2- mashq daftarida keltirilgan Roeld Dahl qalamiga mansub bo'lgan “Oyog'i osmondan bo'lgan sichqonlar” matnidan foydalandim. Matn 372 ta so'zdan iborat.

PIRLS topshiriqlarida badiiy va informatsion matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyati quyidagi to'rtta guruhda baholanadi.

Tajribadan oldin natijalari quyidagilarni ko'rsatdi.

- | | |
|------|---|
| 55 % | diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; |
| 34 % | to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; |
| 20 % | kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; |
| 37 % | g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish. |

Bu topshiriq natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, matn elementlarini baholash va tanqid qilish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish va g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish bo'limlarida o'zlashtirish ko'rsatkichining pastligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z –o'zidan o'quvchilar ustida ko'proq ishlashni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'proq metodlar orqali darslarni tashkil etdim. Bu esa ularda birinchidan diqqatini jamlash va darsga jalb etishni , ikkinchidan o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bir oy davomida o'qish darslarini tashkil qildim. Unda yuqorida keltirilgan metodlardan unumli foydalandim va yakunda Milliy markaz tomonidan yaratilgan topshiriq asosida o'quvchilarning o'zlashtirishini tekshirdim.

Tajribadan keyin, o'quvchilarning o'qish savodxonligi sezilarli darajada oshdi.

- | | |
|------|---|
| 75% | diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; |
| 60 % | to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; |
| 45% | kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; |
| 68 % | g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish. |

O'qish qobiliyatlari	Dastlabki natija (%)	Yakuniy natija (%)
diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish	55	75
to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;	34	60
kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish	20	45
g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.	37	68

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Milliy markaz tomonidan yaratilgan PIRLS topshiriqlari asosida o'qish darslarini tashkil etish o'quvchilarning yuqorida keltirilgan kamchiliklarini bartaraf etishga imkon beradi. Dastur topshiriqlari asosida darslarni tashkil etish nafaqat xalqaro mezonlarga mos o'quv jarayonini yo'lga qo'yadi, balki o'quvchilarda chuqur tahlil va mantiqiy fikrlash malakalarini ham rivojlantiradi. PIRLS topshiriqlari turli janrdagi matnlarni o'z ichiga oladi: badiiy, informatsion, hujjatli matnlar va hokazo. Har bir matnga oid savollar esa o'quvchilarning matnni tushunish darajasi – literal (to'g'ridan-to'g'ri matndan topiladigan ma'lumot), interpretativ (matndan xulosa chiqarish), va reflektiv (matn asosida shaxsiy fikr bildirish) ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Shunday ekan, o'quvchilar o'qish darslarida bu tipdagi topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning barcha darajadagi tushunish faoliyatini rivojlantira oladi. Dars jarayonida PIRLS topshiriqlarini qo'llash uchun matn tanlashdan boshlab, savollar tuzish, guruhlarda muhokama qilish, savollarga asoslangan fikr almashish kabi metodik yondashuvlar qo'llaniladi. Bu usullar o'quvchilarni faollikka chorlaydi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va erkin ifoda qilish ko'nikmasini mustahkamlaydi. Ayniqsa, metakognitiv savollar – ya'ni, o'quvchilarning o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishga undovchi topshiriqlar – dars samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa

PIRLS xalqaro tadqiqotlari asosida o'qish darslarini tashkil etish — zamonaviy ta'lim jarayonining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu o'quvchilarning matn bilan ishlash, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur topshiriqlar asosida darslarni rejalashtirish o'quvchilarda nafaqat matnni tushunish, balki uni tanqidiy baholash va turli kontekstlarda qo'llash salohiyatini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday yondashuv darslarning interfaol, qiziqarli va mazmunli o'tishini ta'minlab, o'qituvchi va o'quvchi

o'rtasida samarali muloqotga zamin yaratadi. Shu boisdan, PIRLS talablari asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8- dekabrda 997-sonli qarori.
2. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislar uchun metodik qo'llanma) Toshkent, 2019.
3. Mamatova G.A. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quv tahlilini tashkil etish va uni baholash metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: 2006. – 95 b.
4. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 112 b.
5. "O'qish savodxonligi" 4- sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik U. Aydarova, N. Azizova – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. 80 b.
6. Ergashev, R. "Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar". – Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2021.
7. Salomov, X. "Interfaol metodlar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish". – Farg'ona: Ilm-fan, 2019